XALQ DEPUTATLARI NAVOIY SHAHAR KENGASHI
Q A R O R I

2023 - yil 13 - aprel VI-56-43-5-79-K/23 Navoiy shahar hokimligi

Navoiy shahar “Farovon” hamda “Vatan” mahalla fuqarolar yig‘inlarining chegarasini bo‘lish asosida yangi mahallalar tuzish to‘g‘risida

Navoiy shahar “Farovon” mahalla fuqarolar yig‘inining 2022-yil 27-oktabrdagi 121-sonli hamda “Vatan” mahalla fuqarolar yig‘inining 2023-yil 12-yanvardagi 14-sonli xatlarini inobatga olib, ma’muriy-hududiy chegaralarini o‘zgartirish orqali mahalla fuqarolar yig‘inlarida boshqaruv tizimini muvofiqlashtirish bo‘yicha iltimosnomalarini ko‘rib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 4-martdagi 48-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Shaharlar, posyolkalar, qishloqlar va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish, bo‘lish va tugatish, shuningdek, ularning chegaralarini belgilash va o‘zgartirish, ularga nom berish va ularning nomini o‘zgartirish tartibi to‘g‘risida”gi nizomga hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalariga asosan, xalq deputatlari shahar Kengashi

QAROR QILADI:

1. Navoiy shahar Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi boshlig‘i (Y. Eshmurodov)ning Navoiy shahridagi “Farovon” va “Vatan” mahalla fuqarolar yig‘inlari chegaralarini belgilash to‘g‘risidagi axboroti ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. “Farovon” va “Vatan” mahalla fuqarolar yig‘inlarida boshqaruv tizimini muvofiqlashtirish bo‘yicha:

yer maydoni 1-ilovaga muvofiq;

aholi soni 2-ilovaga muvofiq;

chegaralari 3-ilovaga muvofiq;

o‘zgartirilgan chegara chizmalari 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Navoiy shahar Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi (Y.Eshmurodov), shahar IIB (F.Berdiyev), shahar Davlat soliq inspeksiyasi (Q.Xolmo‘minov), shahar Statistika bo‘limi (X.Zayniddinov), shahar Davlat xizmatlari markazi (M.Avazov), Kadastr agentligining Navoiy shahar bo‘limi (Sh.Jumayev) va shahar qurilish bo‘limi (J.Yandashev)ga boshqa tegishli mutasaddilar bilan birgalikda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va elektron bazani shakllantirish, ish yuritish hujjatlariga o‘zgartirishlar kiritish bilan bog‘liq barcha tadbirlarni amalga oshirish topshirilsin.

4. Shahar hokimligi Axborot xizmati (lavozimiga ko‘ra) va “Navoiy ziyosi” gazetasi tahririyati (O.Sanoqulov)ga mazkur qarorni OAVda rasmiy e’lon qilish hamda hokimlikning rasmiy veb-saytiga

joylashtirish tavsiya etilsin.

5. Navoiy shahar hokimligi devonxona bo‘limi mudiri (J.Xotamov)ga mazkur qaror nusxasini manfaatdor tashkilotlarga yuborish vazifasi yuklatilsin.

6. Ushbu qaror e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

7. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari shahar Kengashining doimiy komissiyalari hamda Navoiy shahar Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi boshlig‘i (Y.Eshmurodov) zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi **M.Egamqulov**

Xalq deputatlari Navoiy shahar
Kengashining
2023 yil 13 apreldagi
VI-56-43-5-79-K/23-son qaroriga
1-ilova

1-ilova

Navoiy shahar “Farovon” va “Vatan ” mahalla fuqarolar yig‘inining ma’muriy-hududiy chegaralarini o‘zgartirish orqali mahalla fuqarolar yig‘inida boshqaruv tizimini muvofiqlashtirishda tashkil etiladigan fuqarolarni o‘zini o‘zi boshqarish organlarining yer maydonlari

1	**“Farovon” mahalla fuqarolar yig‘inining umumiy yer maydoni**	**“Farovon” mahalla fuqarolar yig‘inining qolgan yer maydoni**	**Yangi tashkil etilayotgan “Alisher Navoiy” mahalla fuqarolar yig‘inining yer maydoni**	**Yangi tashkil etilayotgan “Mahmud Tarobiy” mahalla fuqarolar yig‘inining xonadonlar soni (nafar)**
	112 ga	53,9 ga	25,8 ga	32,3 ga
	“Vatan” mahalla fuqarolar yig‘inining umumiy yer maydoni	**“Vatan” mahalla fuqarolar yig‘inining yer maydoni**	**Yangi tashkil etilayotgan “Yangi Zamin” mahalla fuqarolar yig‘inining yer maydoni**	
	4 ga	2,1 ga	1,9 ga	

Xalq deputatlari Navoiy shahar
Kengashining
2023 yil 13 apreldagi
VI-56-43-5-79-K/23-son qaroriga
2-ilova

2-ilova

Navoiy shahar “Farovon” va “Vatan” mahalla fuqarolar yig‘inlarining ma’muriy-hududiy chegaralarini o‘zgartirish orqali mahalla fuqarolar yig‘inlarida boshqaruv tizimini muvofiqlashtirishda tashkil etiladigan fuqarolarni o‘zini o‘zi boshqarish organlarining aholi soni

1	**“Farovon” mahalla fuqarolar yig‘inining hozirgi kundagi aholi soni (nafar)**	**“Farovon” mahalla fuqarolar yig‘inida qolgan aholi soni (nafar)**	**Yangi tashkil etilayotgan “Alisher Navoiy” mahalla fuqarolar yig‘inining aholi soni (nafar)**	**Yangi tashkil etilayotgan “Mahmud Tarobiy” mahalla fuqarolar yig‘inining aholi soni (nafar)**
	18 433	6 831	6 696	4 906
	“Vatan” mahalla fuqarolar yig‘inining hozirgi kundagi aholi soni (nafar)	**“Vatan” mahalla fuqarolar yig‘inining aholi soni (nafar)**	**Yangi tashkil etilayotgan “Yangi zamin” mahalla fuqarolar yig‘inining aholi soni (nafar)**	
	8 227	4 068	4 159	

Xalq deputatlari Navoiy shahar
Kengashining
2023 yil 13 apreldagi
VI-56-43-5-79-K/23-son qaroriga
3-ilova

3- ilova

Navoiy shahar “Farovon” va “Vatan” mahalla fuqarolar yig‘inlarining ma’muriy-hududiy chegaralarini o‘zgartirish orqali mahalla fuqarolar yig‘inlarida boshqaruv tizimini muvofiqlashtirishda tashkil etiladigan fuqarolarni o‘zini o‘zi boshqarish organlarining chegaralari

	“Farovon” mahalla fuqarolar yig‘inining hozirgi kundagi holati	**“Farovon” mahalla fuqarolar yig‘inining chegaralari**	**Yangi tashkil etilayotgan “Alisher Navoiy” mahalla fuqarolar yig‘inining chegaralari**	**Yangi tashkil etilayotgan “Mahmud Tarobiy” mahalla fuqarolar yig‘inining chegaralari**
1	Yoshlik ko‘chasi 44, 44-a, 46, 46 a, 46-b, 46-b, 48, 48-a, 50, 50-a, 52, 52-a, 54, 54-a, 54-b, 92, 94, 96, 98, 100, 102, 104, 106, 106-a uylar Mahmud Tarobiy shoh ko‘chasi 118, 120-a, 120-b, 120 b, 120-g, 120-d, 120-e, 120, 122, 122-a, 122-b, 124-a, 124-b, 126, 126-a, 126-b, 128, 134, 136, 136-a, 136-b, 136-v, 136-g, 136-d, 136-e, 140, 140-a, 142, 142-a, 144-a, 3, 3-a, 3-b, 7, 108, 108-a, 110-b, 110, 110-a, 112, 112-a, 112-b, 114,114-a, 116, 116-a, 130, 130-a, 130-b, 133, 132-ab, 34, 34-a,36, 36-a uylar	Yoshlik ko‘chasi 44, 44-a, 44-b, 44-b, 46, 46-a, 46-b, 46-b, 48, 48-a, 50, 50-a, 52, 52-a, 54, 54-a, 54-b, 92, 94, 96, 98, 100, 102, 104, 106, 106-a uylar M.Tarobiy ko‘chasi 34, 34-a, 36, 36-a uylar	Yoshlik ko‘chasi 7, 114-a, 116-a uylar M.Tarobiy ko‘chasi 126, 126-a, 126-b, 128, 3, 3-a, 3-b, 108, 108-a, 110-b, 110, 110-a, 112, 112-a, 112-b, 114, 116, 130, 130-a, 130-b uylar	Mahmud Tarobiy shoh 118, 120-a, 120-b, 120-b, 120-g, 120-d, 120-e, 120, 122, 122-a, 122-b, 124-a, 124-b, 134, 136, 136-a, 136-b, 136-v, 136-g, 136-d, 136-e, 140, 140-a, 142, 142-a, 144-a, 134-a, 132-ab uylar
	“Vatan” mahalla fuqarolar yig‘inining hozirgi kundagi holati	**Yangi tashkil etilayotgan “Yangi zamin” mahalla fuqarolar yig‘inining chegaralari**		
1	Navoiy ko‘chasi 34, 34-a, 38, 38-a, 38-b, 38-b, 40, 40-a, 42, 42-a uylar Lomonosov ko‘chasi 11, 11-a, 11-b, 13, 13-a uylar	Lomonosov ko‘chasi 1, 2, 3, 4, 7, 9, 9-a uylar Me’morlar ko‘chasi 4-b,13, 13-a, 13-b, 15, 15-a, 17 uylar		

Xalq deputatlari Navoiy shahar
Kengashining
2023 yil 13 apreldagi
VI-56-43-5-79-K/23-son qaroriga
4-ilova

4- ilova

Navoiy shahar “Farovon” mahalla fuqarolar



yig‘inlarining ma’muriy-hududiy chegaralarini belgilash ishlari TARHI

Xalq deputatlari Navoiy shahar
Kengashining
2023 yil 13 apreldagi
VI-56-43-5-79-K/23-son qaroriga
5-ilova

Navoiy shahar “Vatan” mahalla fuqarolar



yig‘inlarining ma’muriy-hududiy chegaralarini belgilash ishlari

TARHI